

O.GENRI VA ABDULLA QAHHOR IJODIDAGI O'XSHASHLIKLAR

Qodirova Ziyodaxon

*Kokand University, the student of world languages department
qodirovaziyodaxon32@gmail.com*

Qurbonova Muxlisa Umarali qizi

*Kokand University, the student of world languages department
Faculty of English language and literature*

Annotatsiya: Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi O. Genri va o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodidagi badiiy va g'oyaviy o'xshashliklari orqali hayotni haqqoniy tasvirlagan. Har ikki yozuvchi insonparvarlik, realizm, xalqchillik va yumor orqali hayot haqiqatini ifodalagan. Shuningdek, ularning hikoyalarida kutilmagan yakun uslubi, kulgi va kinoyaning mazmuni, hamda til va uslubdagi o'xshashliklari tahlil qilinadi. Xulosa qilib aytganda, O. Genri va Qahhor asarlarida Sharq va G'arb adabiyotini birlashtiruvchi umumiy insoniy g'oyalar aks etadi.

Kalit so'zlar: qisqa hikoya, realizm, xalqchillik, insonparvarlik, yumor, kinoya, til va uslub, badiiy tafakkur, milliy va umuminsoniy g'oyalar.

Adabiyot har qanday xalqning madaniyati va ruhini aks ettiradi. Dunyoning turli burchaklarida yashab ijod qilgan yozuvchilar ko'pincha bir xil g'oyalarni va insoniy muammolarni o'ziga xos tarzda tasvirlashadi. Shu jihatdan, amerikalik yozuvchi O. Genri va o'zbek adibi Abdulla Qahhor o'rtasidagi ijodiy o'xshashliklar adabiyotshunoslar uchun qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi.

Har ikki yozuvchi ham qisqa hikoya janrida ulkan yutuqlarga erishgan yozuvchilardir. Ularning hikoyalari asosan, xalq hayotidan olingan, hayotiy voqealar asosida yozilgan va bu asarlar o'quvchiga chuqur ta'sir qiladi. O. Genri amerika xalqining shahar hayotini ta'svirlagan bo'lsa, A. Qahhor o'zbek xalqining ruhiyatini va turmush-tarzini jonli tasvirlab bera olgan. Shu bois, ularni birlashtiruvchi eng muhim jihat — inson qalbini, uning tuyg'ularini markazga qo'yishidir.

O. Genri ijodining o'ziga xos jihatlari

O. Genrining asl ismi Uilyam Sidney Porter bo'lib, amerikadagi hikoya janriga asos solgan yozuvchilardan biri hisonlanadi. O'zining qisqa, ammo ta'sirli hikoyalari bilan mashhur. Uning "So'nggi sovg'a", "Politsiyachi va madhiyachi", "Oltin soat" kabi hikoyalarida ko'proq insoniy mehr, fidoyilik va muhabbatni ulug'lash haqida yozilgan.

O. Genri hikoyalarida quyidagi asosiy jihatlar uchraydi:

- kutilmagan, ammo mantiqan to'g'ri yakun;
- yumor va kinoya uyg'unligi;
- oddiy insonlar hayotining badiiy ifodasi;

- tilning xalqona soddaligi.

Yozuvchi o'z asarlarida oddiy xalqni orzu-havaslarini, ularning kichik baxtlarini katta ahamiyat bilan ko'rsatadi. Uning kulgisi ya'ni hazili achchiq emas, balki mehr bilan to'ldirilgan. Shu sababdan, O. Genrining hikoyalari o'quvchini va kitobxonni bir vaqtning o'zida ham kuldiradi, ham o'ylantirib qo'yadi.

Abdulla Qahhor ijodining o'ziga xos jihatlari

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida realistik hikoyachilikni rivojlantirgan yozuvchilardan biri bo'lib, o'z asarlarida xalq hayotini chuqur tahlil bilan ta'svirlab bera olgan. "O'g'ri", "Anor", "Bemor", "Sinchalak" kabi hikoyalarda u inson ruhiyatini, jamiyatdagi muammolarni, insonning axloqiy tanlovlarini badiiy tarzda ifodalagan.

Qahhor ijodining asosiy xususiyatlari:

- realistik ruh va hayotiylik;
- xalq tilidan ustalik bilan foydalanish;
- yumor va kinoya orqali ijtimoiy tanqid;
- insonparvarlik va axloqiy saboq.

Yozuvchining hikoya va asarlaridagi kulgi va hazil ko'pincha jamiyatga tegishli: yozuvchi insonni emas, illatni masxara qiladi. Qahhorning kinoyasi orqasida har doim insonni tushunish va unga mehr ko'rsatish intilish hisi sezilib turadi.

Ijodiy o'xshashliklarning tahlili

Har ikki yozuvchi asarlarida aynan insonni markazga qo'yishgan qaysiki, ularning orzusi, qadri, turmush tarzi va shunga o'xshash jihatlari. O. Genri kambag'allar, nochorlar va albatta, mehnatkashlar hayotini ochiq yoritib bergan bo'lsa, A. Qahhor esa o'z xalqining oddiy vakillarini asarlarida bosh qahramon sifatida ko'rsatadi. Ular uchun har bir inson — mehr, hurmat va e'tiborga loyiqdir.

O. Genrining yumorini o'quvchini yoki kitobxonni kuldiradi, ammo shu kulgi orqali u hayot haqiqatini ko'rsatib beradi. Qahhor ham kulgi orqali jamiyatdagi illatlarni va muammolarni fosh etib, ochib bergan. Har ikki yozuvchi uchun kulgi — bu axloqiy qurol vasaboq, shuningdek, insonni o'ylantiruvchi vosita hisoblanadi.

O. Genrining hikoyalarda kutilmagan yakun uslubi o'quvchiga kuchli ta'sir qiladi. A. Qahhor ham bu uslubni milliy adabiyotga mos tarzda qo'llagan. Shu jihat ularni ijodiy jihatdan yaqinlashtiradi.

Ikkala adib ham o'z xalqining tilini san'at darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'lgan. O. Genri ingliz xalqining so'zlashuv ohangini asarlariga qo'shgan bo'lsa, A. Qahhor o'zbek xalq maqollari, iboralari va yumor yoki hazillaridan mohirlik bilan foydalangan. Shu sababli ularning hikoyalari o'qilganda tabiiy va jonli eshitiladi.

O. Genri va Abdulla Qahhor o'z milliy adabiyotlarida qisqa hikoya janrini rivojlantirgan yozuvchilardir. Ularning hikoyalari insoniy qadriyatlarni targ'ib qiladi va shu bilan birga o'quvchini ezgulikka, mehrga, sabrga undaydi.



Bu ikki yozuvchi o'z davrida turli siyosiy, madaniy muhitda yashagan bo'lsa-da, ularni birlashtirgan muhim jihat — inson qalbi va axloqiy poklikdir. Ularning asarlarida milliylik bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar kuchli va yaqol ta'svirlanib berilgan . Shu tufayli, hozirgi kunda ham ularning hikoyalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

O. Genri va Abdulla Qahhor ijodidagi o'xshashliklar shuni ko'rsatadiki, adabiyotning milliy chegaralardan ustun turganini ko'rsatadi. Har ikkala yozuvchi ham asarlarida hayotni bezamaydi, ammo insonparvar ruhda tasvirlab berishgan . Ularning hikoyalari o'quvchiga hayotning go'zalligini, insoniy fazilatlarning kuchini his ettiradi.

Ularni bog'lab turuvchi eng muhim jihatlar:

- insonparvarlik va axloqiylik
- kulgi va kinoyaning tarbiyaviy mohiyati;
- hayotiy realizm va xalqchilik;
- qisqa, ammo mazmunli badiiy shakl.

Shunday qilib, O. Genri va Abdulla Qahhor ijodi — biri G'arb, biri Sharq adabiyotining timsoli bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy jihat inson qalbiga e'tibor va ezgulik g'oyani qadrlashidir. Ularning asarlari hozirgi kunda o'quvchi uchun ham ibratli, zamonaviy va hayotiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor. *Tanlangan hikoyalar*. Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" nashriyoti, 2013.
2. Abdulla Qahhor. *Anor. Qissa va hikoyalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2012.
3. Abdulla Qahhor. *O'g'ri. Hikoyalar to'plami*. Toshkent: kitob shaklida, 2019.
4. Abdulla Qahhor. *Dahshat (hikoyalar to'plami)*. Kirill yozuvida.
5. Abdulla Qahhor. "Hikoyalar janriga kirib kelishi" (maqola) — ilmiy maqola, konferensiya materiali.
6. O. Henry. *Selected Short Stories / Short Fiction*. — standardebbooks.org versiyasi.
7. O. Henry. *O. Henry's Stories: Posobie* (karasik paperback / akademik nashr).
8. Qodirova, Z. (2025). Translation and Cultural Adaptation of Proverbs from Uzbek and English Literature (A Case Study of Abdulla Qahhor and O. Henry). *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*, 1(4), 25-29.
- Qodirova, Z. (2025). Pragmatic Functions of Proverbs in the Short Stories of Abdulla Qahhor and O. Henry: A Comparative Cross-Cultural Analysis. *TLEP – International Journal of Multidiscipline*, 2(5), 18-25
9. Qodirova, Z. (2025). Linguocultural Features of Proverbs in Abdulla Qahhor's and O. Henry's Works. *TLEP – International Journal of Multidiscipline*, 2(5), 10-17.





10. Qodirova, Z. (2025). Cross-Linguistic Representation of National Identity through Proverbs (Insights from Abdulla Qahhor and O. Henry). International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research, 1(4), 22-24.

11. https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/1-the_gift_of_the_magi_0.pdf

12. [https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/Tanlangan Hikoyalar Abdulla Qahhor .pdf](https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/Tanlangan_Hikoyalar_Abdulla_Qahhor.pdf)

13.